

QISH OYLARIDA YANGI TUQQAN TUYALAR UCHUN QO'SHIMCHA RATSIONLAR

Tleumuratov Aqilbek Kanalbaevich

¹Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali 3-bosqich doktoranti

Ko'charov. S.Y.,

²Samarqand davlat veterinariya tibbiyoti, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Toshkent filialining 2-bosqich doktoranti

Turganbaev Ruzimbay Urazbaevich.

³Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali professori, qishloq xo'jalik fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ustyurt platosi sharoitida qish oylarida yangi tuqqan sog'in tuyalar uchun qo'shimcha mahalliy oзуqlardan tashkil topgan ratsionlarni tavsiya qilish va xulosalar berish.

Kalit so'zlar. Ustyurt platosi, sog'in tuyalar, qo'shimcha ratsion, mahalliy oзуqlar, xulosalar.

Аннотация. В данной статье представлены рекомендации и выводы по рационам, состоящим из дополнительных местных кормов, для дойных верблюдиц, отелившихся в зимние месяцы в условиях плато Устюрт.

Ключевые слова. Плато Устюрт, дойные верблюдицы, дополнительный рацион, местные корма, выводы.

Abstract. This article presents recommendations and conclusions on rations consisting of supplementary local feeds for lactating female camels that calved during the winter months in the conditions of the Ustyurt Plateau.

Keywords. Ustyurt Plateau, lactating female camels, supplementary ration, local feeds, conclusions.

Kirish. Bugungi kunda jahonda tuyachilik sohasida etakchilik qiluvchi asosiy joriy davlatlar qatoriga Avstraliya, Argentina, Namibiya, JAR (Janubiy Afrika Respublikasi), Namibiya, Mongoliya davlatlari kiradi. FAO (2023y) ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 24 mln. boshga yaqin bir va ikki o'rkachli tuyalar bo'lib, shundan *Camelus dromedarius* tuyalarining 50-ta zoti tipi va *Camelus bactrianus* tuyalarining 7-ta zoti tipi mavjuddir. Ushbu davlatlarda ma'lum darajada *C. Dromedarius* va *C. Bactrianus* tuyalarining mahsuldorligini oshirish borasida seleksiya usullari va genotipik xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan ko'pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ammo bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda tuyachilikdan olinadigan sut va go'sht mahsulotlari katta ahamiyatga ega bo'lib, tuyachilik mahsulotlarining miqdorini oshirish va

mahsulotlarni qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish yo'nalishlari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ustyurt platosi sharoitida qish oylarida yangi tuqqan tuyalar uchun mahalliy ozuqlardan foydalangan holda qo'shimcha ratsionlar tarkibini tavsiya qilishdir.

Tadqiqot ob'ekti sifatida yangi tuqqan sog'in tuyalar olingan.

Asosiy qism. Yaylov sharoitida saqlashning eng muhim masalasi tuyalarni butun yil davomida etarli miqdorda dag'al ozuqa bilan ta'minlashdir. Yaylov davri uchun ozuqaga bo'lgan talabni hisoblashda hayvonlarning tirik vazni, semizligi, fiziologik holati, mahsuldorlik darajasi va boshqa sharoitlarni hisobga olgan holda odatdagi ozuqa me'yorlariga amal qilinadi.

Katta yoshdagi tuyalar bir sutkada yoz oylarida o'rtacha 24 kg dan 27 kg gacha ko'k ozuqa talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, qish oylari uchun qo'shimcha dag'al ozuqaga bo'lgan talab aniqlanadi va zahira qilinadi.

Sog'in ona tuyalar uchun qo'shimcha ozuqa beriladi, ayniqsa bu davr qish yoki erta bahor oylariga to'g'ri kelsa yaylov ouqalariga qo'shimcha ozuqa bilan ta'minlanishi zarur [4. 79-81].

Tuyalarni yaylov sharoitlarida saqlash muhim ahamiyatga ega. Qishki-og'ilxonada tuyalar motsion maydonchalariga ega bo'lishlari lozim. Og'ilxona eshiklari kamida 3-metrni tashkil qilishi va og'ilxona quruq to'shamalar bilan to'shalgan bo'lishlari kerak. Og'ilxona pol qismini betonlash yoki qattiq materiallardan qilish maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Shu bilan bir qatorda xongadalrga kuchli shamol kitirishiga yo'l qo'yilmaydi. Aks holda tuyalar bezovtalanishi, agressiv holatlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi [1. 156 b].

Yosh bo'taloqli emizuvchi tuyalarni oziqlantirish muhim hisoblanadi. Sababi, katta yoshdagi tuyalar fiziologik holatini saqlash va semizlik darjasingi bir m'yorda saqlab turi shva shu bilan birga sut ishlab chiqarishi uchun ozuqa talabini hisobga olish zarur.

[3. 34.b] ma'lumotlariga ko'ra, 1 kg sut hosil bo'lishi uchun 0,68-0,7 kg ozuqa birligi, 61-75 g hazmlanuvchi protein, 7,2 g kalsiy, 10,2 g fosfor sarflanadi, 500 kg tirik vaznga ega bo'lgan tuyalar uchun saqlab turuvchi ozuqaning o'rtacha miqdori 4,1 kg ozuqa birligi va 246 g hazmlanuvchi proteinga teng.

Sog'in tuyalar uchun qish oylarida oziq moddalarga bo'lgan talabi tirik vazni, mahsuldorlik darajasi, fiziologik holati, hayvonning yoshi va boshqa omillarga bog'liq holda qo'shimcha ratsion asosida beriladi.

Kunduzi tuyalarni yaylovda chiqarishning eng muhim ahamiyati dag'al ozuqaga bo'lgan talab ma'lum darajada qoplanadi. Ya'niy 1-sutkada o'rtacha 1-bosh tuya uchun 24 kg dan 27 kg gacha dag'al ozuqa ist'emol qiladi. Ushbu

ratsionni tuzishda dag'al ozuqaga bo'lgan talabning kamida 50 %-ni qoplashni maqsad qilindi. Xo'jalikda asosan, dag'al ozuqa sifatida qish oylari uchun yantoq pichani tayorlanadi va zahira sifatida saqlanadi. Paxta kunjarasi qo'shni Xo'jayli tumanida joylashgan paxtani qayta ishlash zavodidan olib kelinadi.

Ustyurt sharoitida qish oylari uchun sog'in tuyalarga qo'shimcha oziqlantirishda xo'jalik imkoniyotidan kelib chiqqan holda, quyidagi ratsion tavsiya qilinadi va ushbu ratsion 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval.

Qish oylari uchun sog'in tuyalarga taxminiy ratsion tarkibi

Ozuqalar	Ozuqa birligi	Tirik vazni, kg			
		450	500	550	600
Yantoq pichani, kg	0,38	8,0	10,0	12,0	14
Arpa maydasi, kg	0,97	1,5	1,8	2	2,2
Paxta kunjarasi, kg	1,35	1,0	1,3	1,6	2,0
Mineral qo'shimchalar, g	-	120	150	200	220
Jami ozuqa birligi	2,7	5,94	7,31	8,84	10,15

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda xo'jalikda asosan yantoq pichani tayorlanishini inobatga olgan holda, 1-sutkada yaylov o'simliklariga qo'shimcha tirik vaznini hisobga olgan holda 8,0-14 kg-gacha beriladi. Tuyalar uchun arpa (maydalangan holda) 1,5-2,2 kg-gacha 1-bosh uchun beriladi. Paxta kunjarasi esa, 1,0- 2,0 kg-gacha beriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu ratsion yarim yaylov sharoitida saqlanadiga sog'in tuyalar uchun qish oylariga mo'ljallangan bo'lib, kunduzi yaylov sharoitida va kechqurunlar og'ilxonalarda saqlanadigan tuyalarga, kuniga 4-5 marta ona qilinadigan va sog'iladigan katta yoshdagi tuyalarga mo'ljallangan. Ustyurt yaylov sharoitida asosan, shuvoq-sho'ra yaylov o'tlaridan iborat bo'lib, ushbu o'simliklar tuyalar uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi. Undan tashqari qo'shni xo'jaliklar er maydonlaridan foydalanish imkoniyoti bo'lib, bu erda paxtadan, sholidan bo'shagan erlar kiradi. Qish oylarida ushbu maydonlar tuyalar uchun yaxshi yaylov hisoblanadi.

Ratsion tuzishda tuyalar tirik vazni inobatga oliingan holda, tirik vazni oshgan sari beriladigan ozuqa miqdori oshib boradi. Bizning tajriba ishlarimizda asosan, 450-600 kg bo'lgan sog'in tuyalar olinib, tirik vazniga qarab ratsion miqdori oshib borildi va ushbu ma'lumot quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Sog'in tuyalarning har 50 kg. tirik vazni oshishiga ratsion tarkibidagi ozuqa birligi o'zgarishi, %

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarda 450 kg tirik vaznga ega tuyalarga nisbatan har-bir 50 kg-ga tirik vazni ortishida ozuqa sarflaning oshishi ko'rsatilgan bo'lib, 500 kg. tirik vaznga ega tuyalarda 23,1 %-ga, 550 tirik vazndagilarga 48,8 %-ga va 500 kg tirik vazniga ega tuyalarda esa, 70,9 %-ga oshirilgan. Ushbu ratsion asosida ozuqa sarflanishi tuyalarning semizlik darajasini bir m'yorda turishi ta'minlanadi.

Xulosa. YAylov sharoitida tuyalar uchun suv manbalari etarli joylar bo'lishi zarur. Tuyalarni yaylov yoki yarim yaylov sharoitida saqlash tajribalari shuni ko'rsatadiki, tuyalarni suv bilan to'liq ta'minlash, ularning sut mahsuldorligini oshirishga yordam beradi. Tuyalarning suvga bo'lgan ehtiyoji asosan yil fasliga va iste'mol qilinayotgan ozuqa turiga bog'liq.

Qish oylarida tuyalar uchun og'ilxonalar ayniqsa, sog'in tuyalar mumkin qadar issiq og'ilxonalardan foydalanish zarur. Bunday og'ilxonalarni mahalliy materiallardan qamish, somonlardan qurilish materiali sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 январдаги ПҚ 34-сонли «Чорвачилик ва паррандачиликни кўллаб куватлаш, соҳада юқори кўшилган қиймат яратиш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги қарори.

2. Абдикаликова Б. К. Оптимизация кормления двугорбых верблюдов в Северной зоне Казахстана. М., 2000. 156 с.

3. Бестужев А.Г. Кормление двугорбых верблюдов. Кормовой режим-Алма-Ата: Каз госиздат. -1951. Ж. 34 с.

4. Мусаев З.М. Выращивание верблюжат на шубатной ферме. // - Алма-ата, 1990. – 79-81 с.